

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLANING “MEN” SHAKLLANISHIDA OTA-ONA VA OILANING AHAMIYATI.

**ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi
Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjonovna
ADPI 1-bosqich talabasi
Turg‘unova Mubinaxon To‘ychiboy qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarda kechadigan inqiroz, bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hamda “MEN”i shakllanishida ota-ona va oilaning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zi: ontogenez, “Men”, avtoritar, demokratik, rivojlanish, yosh davri, shakllanish.

Ontogenezda insonning shaxs sifatida shakllanishida, yetuk inson bo‘lib rivojlanishida har bir yosh davrlarining o‘rni beqiyos. Ammo bolaning shaxs sifatida shakllanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va “MEN”i vujudga kelishida “Maktabgacha yosh davri” muhim ahamiyatga ega.

Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

1-davr: 3-4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir;

2-davr: 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish bilan bog‘liqdir;

3-davr: bu davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.[2]

Birinchi davrda bola onasining bag‘ridan chiqib (bog‘chaga chiqadi, ko‘chada do‘stlari bilan o‘ynashni boshlaydi), ijtimoiylashuv jarayoniga qo‘shilishni boshlaydi va bevosita bolada har bir yosh davrlarda bo‘lganidek turli inqirozlar boshlanadi. Jismoniy jihatdan mustaqillikka erishish(yurish, yugurish) bolada erkin, kattalarning nazoratisiz, o‘z holicha qandaydir ishlarni bajarish, ijtimoiy muhitda shaxs sifatida yashash istagini tug‘diradi. 3 yoshli bolalar o‘zlarini kattalar bilan taqqoslay boshlaydilar, hatto kattalar qilayotgan ishlarni, ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladilar. Men katta bo‘lsam mashina haydayman, “Men sizga katta tort olib kelaman”, “Mening 100 ta qo‘g‘irchog‘im bo‘ladi” kabi istaklarni kelasi zamonda gapirsa ham bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘pincha bu harakatlar qaysarlik va qat‘iylik bilan namoyon bo‘ladi[1].

3-3,5 yoshlar oralig‘ida bolalar o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu asosan o‘zlariga beradigan yuqori bahosi asosida shakllanadi.[2]

Ikkinchi davrdagi ya‘ni 4-5 yosh orasidagi bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o‘zlari haqida ma‘lum bir xulosani bera olmaydilar.[2] Mazkur davrda bolalarning “MEN” endigina yuzaga chiqishni boshlagan bo‘ladi hamda ular o‘zini ota-onalarining unga bergan bahosi bilan baholaydilar. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo‘ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va tsimulyatori bo‘lib xizmat qiladi.[2]

Har bir davrda insonning o‘z-o‘ziga baho berishi,(MEN) I mavjud bo‘ladi va u turli omillar ta‘siriga hamda insonlarga bog‘liq bo‘ladi. Aynan ushbu davrda ota-onaning bolaga bo‘lgan bahosi shunchalik ahamiyatga ega bo‘ladiki, bu omil bolaning kelajakda o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori bo‘lishida, muvaffaqiyatga erishishida va “Buyuk inson” bo‘lib yetishida juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Tarixdagi buyuk insonlar hayotiga nazar tashlasak ham bu bolaning hayotida qanchalik muhim ekanini ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida esa Edisonning hayotidagi qisqa hikoyani olishimiz mumkin.

“Yangi uyga ko‘char mahali Tomas bolalik uyining har bir qarichini ko‘zdan kechirdi. Xizmatkorlardan o‘ziga qadrdon jihozlarni mashinaga avaylabgina yuklashlarini iltimos qildi. Bolaligida kiyimlari saqlangan shkafning yuqorisidan onasining sevimli qizil g‘ilifli jomadoni chiqdi. Tomas uni ehtiyotkorlik bilan stol ustiga qo‘yib, ochdi. Onasiga tegishli buyumlar orasidan chiqqan sarg‘ish qog‘ozni oldi. Maktub ostiga uning imzosi chekilgan ekan. Bu imzo Tomasga onasi bilan bog‘liq xotirani eslatib yubordi. U paytda Tomas birinchi sinfda o‘qir edi. O‘sha u muallima unga bergan, onasiga berishi zarurligini tayinlagan maktubni validasiga keltirib berdi. Xatga ko‘z

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

tashlayotgan onaizorning g`amgin ko`zlarida yosh aylandi, so`ng farzandini bag`riga bosdi. “Ustozim nima deb yozibdi” deb so`radi o`g`il onasidan. “U seni o`ta qobiliyatli ekaningni, bu maktab senga to`g`ri kelmasligini aytib, mendan biror nufuzli maktabga o`tkazishimni so`rabdi”, ona jilmayishga harakat qilib javob qaytardi.

Jomadondan topilgan, vaqt urintirib qo`ygan maktubni Tomas o`qib hayratga tushdi. “Sizning o`g`lingiz ruhiy kasal. Iltimos, uni ixtisoslashgan boshqa biror maktabga joylashtirsangiz. Hurmat bilan muallima”.

19 va 20 asrning tengsiz daholaridan biri Tomas Edison kipriklari bexosdan namlandi. Onasining qanchalar oqila ayol bo`lganiga yana bir bora amin bo`lib, validasini duo qilib, go`zal taqdiri uchun undan minnatdor bo`ldi.”[3]

Albatta, har bir bolaning oiladagi munosabatlar o`ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-ona va bola munosabatlarining umumiy jihatkari ham mavjuddir: Ota-onalar bolalar xulq atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko`ra o`rtadagi munosabatlar ko`pincha “demokratik” va “avtoritar” nazorat qiluvchi kabilarga ajratiladi.

“Oiladagi “avtoritar” muhit bolalarga nisbatan haddan tashqari ta`qiqqlarning ko`pligi bilan xarakterlanadi. Hukmron “ota-onalar boladan to`liq bo`ysunishini talb qiladilar.”[2] Natijada esa bolalar kelajakda osongina bo`sunuvchi, shaxsiy fikrini ayt olmaydigan, o`z hohish istaklarini oxirgi o`ringa qo`yadigan bo`lib ulg`ayishadi va o`smirlik1 yoshida kasb tanlashga ham qiynalishadi. Bunday bolalarda hamma insonlarda mavjud bo`lgan, rivojlantirishlar asosida yuzaga chiqadigan hamda keyinchalik iste`didga aylanadigan layoqat kurtaklari4 ham uyg`onmay kurtakligicha qolib ketadi.

Shu narsa aniqlanganki, “avtoritar” va “demokratik” oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarida muayyan farq mavjud bo`ladi. “Demokratik” oilalarning farzandlari ijodkorlikka moyil, tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, kopnformizmni (guruh fikriga tobe bo`lishni) inkor etuvchi, ijtimoiy munosabatlarda ko`proq emotsiyalarni his etuvchi bo`ladilar[2]. Hamda bunday oilalarda tarbiyalangan bolalar shaxsiy fikriga ega, o`z hoxish istaklarini namoyon eta oladigan bo`ladilar va ularning jamiyatda shaxs sifatida o`rin egallashi, kasb tanlashi “avtoritar” ikkinchi oilalarda o`sgan bolalarga nisbatan osonroq bo`ladi va ular hayotda boshqalarga qaraganda ko`proq muvaffaqiyatlarga, yuksak cho`qqilarga erishadilar.

Sotsiometrik tajribalardan ma`lum bo`lishicha oiladagi muhit iliq, ota-ona va bola o`rtasidagi munosabatlar demokratik asosga qurilgan bo`lsa, bola o`z tengdoshlarining orasida, jamoada yuqori mavqega, aksincha, nosog`lom oilada tarbiyalanayotgan bolalar ancha past mavqega ega bo`ladilar.[2]

Ko`p bolali oilalarda o`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa-singillari ham kuchli ta`sir ko`rsatadi. Aka-opalar bolaga eng yaqin bo`lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o`rinni egallaydi. Ba`zi tadqiqotchilar, hatto shunday fikrlardaki, oila a`zolarining soni ko`payib borgan sari bolalrga ota-onalarning ta`siri kamayib, aka-opalarning ta`siri kuchayib boradi.[2] Bu esa ayniqsa oiladagi katta farzandlarni tarbiyasiga ko`proq ahamiyat berish kerak ekanligini, ularni adolatli, samimiy mehribon hamda oqibatli qilib tarbiyalash kerkligini taqozo etadi.

Katta bog`cha yoshdagi bolalar o`z kamchiliklari va afzalliklarini yaxshi biladilar va atrofda gilarining bunga munosabatini inobatga oladilar. Bu bolada shaxsning rivojlanishida, axloq motivlarini o`zlashtirishda, ijobiy axloq namunalariga erishishda katta ahamiyatga ega bo`ladi. Bola shaxsining to`g`ri shakllanishi uchun, axloqiy me`yorlarni bilish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilk va maktabgacha yosh davrida bola atrofda gilarining insonlar (kattalar, tengdoshlar va boshqa yoshdagi bolalar) bilan muloqot orqali axloqning ijtimoiy me`yorlarini aniqlaydilar. Katta odamlar bolalarga ma`lum bir axloqiy xatti-harakatlarning kerakligi yoki to`g`rigi haqida fikrlashga yordam beradilar, katta odamlar bolaning ma`lum bir xatti-harakatiga nisbatan o`zining munosabati bilan ko`rsatma beradilar. Katta odamlarga hissiy bog`liqlik zamirida bolada tan olishga intilish rivojlanadi.

Kattalar tomonidan tan olishga intilish va tan olinish bolaning eng muhim ehtiyojlaridan biri hisoblanadi.[1]

Bu boladagi tan olishga bo`lgan intilish ham o`ziga bo`lgan ishonchini oshirishda (“men”i yuqori bo`lishida) katta ahamiyat kasb etadi. “Tan olingan” va “Tan olinmagan” bolaning o`rtasida,

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

bolalarning o‘ziga bo‘lgan bahosida, keyinchalik uning hayoti davomidagi o‘quv faoliyatida keskin farq qiladi. Bolalarning ota-onalari tomonidan tan olinishi, bu paytdagi har bir yutuqlariga, fazilatlariga ular tomonidan rag‘batlantirilishi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday holatda hech qachon: "Sen buni qila olmaysan", "Qo‘lingdan kelmaydi", "bekorchi savollar bilan boshimni qotirma" va hokazo kabi iboralarni qo‘llamaslik kerak. Kattalarning bunday hurmatsiz iboralari bolada o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchi tushib ketadi. Bolada nomukammallik kompleksi, o‘zining ojizlik hissi paydo bo‘ladi. Nomukammallik kompleksi –insonning eng murakkab axloqiy kamchiliklardan biri bo‘lib, u boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishni murakkab lashtiradi hamda og‘ir ichki hissiyotni keltirib chiqaradi. [1]

Xulosa: Bola oppoq bir qog‘oz kabidir. Uning qanday rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi, hayotda katta yutuqlarga erishishi bevosita oiladagi unga bo‘lgan munosabatlar, ota-ona tomonidan beriladigan ishonch va tarbiyaga bog‘liq. Shunday ekan ota-onalar va oila a‘zolari har doim bolaga ishonch berishi, qo‘llab-quvvatlashi, ularning fikrlarini inobatga olishi juda muhim. Zero, farzandlar yurtning kelajagi va ularning tarbiyasidagi har bir jarayonga qattiq e‘tibor berish nafaqat ota-onalarning, balki biz atrofdagi insonlarning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”, Z. T. Nishonova, F. N. Vahobova, S. T. Madaliyeva. "Faylasuflar nashriyoti", Toshkent-2017.
2. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi", Z. T. Nishonova, G. K. Alimova, A. G. Turg‘unboyeva, M. X. Asranboyeva. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi, Toshkent-2017. Erkak.uz sayti.